


ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2020- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 6663,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 114,5 % ga ko'paydi.




Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020- yil yanvar-dekabr

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
Jami	6 663,2	114,5	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar	996,0	80,5	14,9
Davlat byudjeti mablag'lari	466,6	84,0	7,0
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	206,0	2,2 m.	3,0
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlari	323,4	54,9	4,9
Markazlashmagan investitsiyalar	5 667,2	123,7	85,1
Korxona o'z mablag'lari	1 638,2	174,1	24,6
Aholi mablag'lari	1 141,5	118,1	17,1
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlari	1 477,9	95,4	22,2

	<i>Mrld. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1 409,5	178,3	21,2

Umumiy hajmning markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 996,0 mld. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar yoki umumiy hajmning 14,9 %i o'zlashtirildi, shuningdek, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari orqali 5 667,2 mlrd. so'm (yoki 85,1%).




Korxona mablag'lari-1 638,2 mlrd.so'm

Aholi mablag'lari-1 141,5 mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-1 477,9 mlrd. so'm


Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari-1 409,5 mlrd. so'm

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Shovot - 166,1 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 352,2 mlrd. so'm), Xiva shahar - 156,7 % (460,3 mlrd. so'm) , Tuproqqal'a - 150,2 % (236,0 mlrd. so'm), Gurlan - 149,0 % (420,9 mlrd. so'm).

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar



Shuningdek ayrim hududlarda o'tgan yilga nisbatan kamayish kuzatildi, jumladan Urganch shahar 86,9 % (1 731,2 mlrd. so'm).


Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2020- yil yanvar-dekabrida 3 544,6 ming so'm yoki 112,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib 12 005,7 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,0 % ni tashkil etdi, Xiva shahrida 4 959,9 ming so'm (yoki 154,5 %) va Yangibozor tumanida 4 959,7 ming so'm (yoki 121,4 %) darajada qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1 599,5 mlrd. so'm (jami investitsiyalarning 24,0%), ishlab chiqarish sanoati – 1 154,7 mlrd. so'm (17,3%), qurilish - 314,2 mlrd. so'm (4,7%), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 524,8 mlrd. so'm (7,9%), ta'lim - 294,5 mlrd. so'm (4,4%), uy-joy qurilishi - 771,8 mlrd. so'm (11,6%) va boshqa faoliyat turlari – 1 690,9 mlrd. so'm (25,4%).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 1 801,3 mlrd. so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 179,1 mln. AQSH doll.), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72,9 % tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 457,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va shuningdek 1 344,3 mlrd. so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 316,2 mlrd. so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 323,5 mlrd. so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 1 161,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahriga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 28,3 % ni ta'minladi, Xonqa tumanida 8,6 %, Xiva shahrida 8,5 % kuzatildi.


Xorijiy investitsiya va kreditlar

	Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd. so'm		Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan % da.	
	Jami:	Shu jumladan, kreditlar:	Jamiga:	Asosiy kapitalga investitsiyalar:
Xorazm viloyati	1 801,3	1 344,3	100	27,0
<i>shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	510,5	392,1	28,3	29,5
Xiva sh.	153,1	85,1	8,5	33,3
Bog'ot	152,9	150,9	8,5	28,8
Gurlan	124,7	114,2	6,9	29,6
Qo'shko'pir	96,4	73,8	5,4	27,9
Urganch	109,8	83,9	6,1	22,4
Hazorasp	42,4	42,3	2,4	13,8
Tuproqqal'a	106,3	73,1	5,9	45,1

Xonqa	154,7	82,9	8,6	23,9
Xiva	92,3	21,0	5,1	30,6
Shovot	90,4	67,4	5,0	25,7
Yangiariq	95,7	95,7	5,3	23,6
Yangibozor	72,1	61,9	4,0	16,6


Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 27,0 % ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd. so'm)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmga nisbatan 18,0 % yoki 323,4 mlrd. so'm, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 82,0 % yoki 1 477,9 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 316,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 40,0%, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 54,6%, boshqa xarajatlarning - 5,4% ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: Sh.Babajanov
Telefon: (0362) 224-65-22.